

Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy qilishning ahamiyati

*Abduxoliqova Marhabo,
Qashqadaryo VXTXQTMOI*

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat hayotiga yangiliklarni kirib kelishi, inson mehnatining takomillashishi, qulaylikka ega bo'lishi, yangilanib borishiga bo'lgan ehtiyoj ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Shu ma'noda pedagogik texnologiyalarni amalda joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim-tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

«Charxpalak» metodi

Ushbu metod o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olishga mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga, o'rgatishga va qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Metodning maqsadi: o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlashga, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatish.

O'tkazish tartibi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida, o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

-o'quvchilar guruhlariga ajratiladi;

-tarqatma materiallar tarqatiladi;

-har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biror bir belgisini chizib qo'yadi;

-vaqt belgilanadi, vazifa bajariladi;

-vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga “Charxpalak aylanmasi” yo’nalishida almashtiriladi;

-yangi guruh a’zolari tomonidan berilgan materiallar o’rganiladi va o’zgartirishlar kiritiladi;

-jamoalar tomonidan o’rganilgan va o’zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo’nalish bo’yicha guruhlararo almashtiriladi;

-materiallarni oxirgi almashishdan so’ng har bir guruh a’zosi o’zlari ilk bor to’ldirgan materiallarni tanlab oladilar;

-har bir guruh a’zosining o’zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a’zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar;

-har bir o’quvchi to’g’ri javob bilan belgilangan javoblar farqini aniqlaydilar, o’z- baholaydilar.

«Xulosalash» texnologiyasi

“Xulosalash” texnologiyasi murakkab, ko’p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o’rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo’la mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyaning maqsadi: o’quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo’lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash usuli yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o’quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o’z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o’tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo’llay olishga o’rgatish.

Texnologiyaning dars davomida qo’llanilishi: asosan ma’ruza darslasrida (imkoniyat va sharoit bo’lsa), seminar, amaliy va laborotoriya mashg’ulotlarida

yakka (yoki kichik guruhlar ajratilgan) tartibda o'tkazish, shuningdek, uyga vazifa berishda ham qo'llash mumkin.

Foydalaniladigan vositalar: A-3 formatdagi qog'ozida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flamaster yoki rangli qalamlar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi o'quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi:

afzallik	kamchili k	afzalli k	kamchilik	afzallik	kamchilik
Xulosa					

- har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoning yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;
- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdim etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruh o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

- o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, mashg'ulotga yakun yasaydi.

«Fikriy hujum» («Mozgovaya ataka») metodi

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

«Fikriy hujum» metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

«Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

«Yalpi fikriy hujum» metodi

Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qo'llash mumkin.

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

«6x6x6» metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. «6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- *guruhlarining har bir a'zosini faol bo'lishga undaydi;*
- *ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;*
- *guruhning boshqa a'zosi fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;*
- *ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.*

Eng muhimi mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida «6x6x6» metodi

qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham bir muncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

«6x6x6» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. «6x6x6» metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqadi.

2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlariga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.


5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida

guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

«Qarorlar shajarasi» («Qarorlar qabul qilish texnologiyasi») metodi

«Qarorlar shajarasi» metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondoshuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh yoki sinf o'quvchilari ishtirokida qo'llaniladigan «Qarorlar shajarasi» bir necha o'n nafar o'quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):



«Qarorlar shajarasi» metodi quyidagi shartlar asosida qoʻllaniladi:

1. Oʻqituvchi mashgʻulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2. Oʻqituvchi oʻquvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir aʼzosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh aʼzolari bir toʻxtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh aʼzolari oʻz guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda oʻqituvchi rahbarligida barcha oʻquvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tugʻilgudek boʻlsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan boʻlsa, oʻqituvchi buning sababini izohlaydi.

«Qarorlar shajarasi» metodining oʻziga xos jihati shundan iboratki, bu metod bevosita maʼlum loyiha asosida qoʻllaniladi.

«3/3» («4/4», «5/5», ...) metodi

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko'ra o'qituvchi mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan uchta (to'rtta, beshta va hokazo) to'g'ri va unga teng nisbatda (uchta, to'rtta, beshta) bo'lgan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (so'zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchilar ushbu tizimdan mavzu (bo'lim, bob)ga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- *o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzu (bo'lim, bobi)ga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;*
- *o'quvchilar mavzu (bo'lim, bob)ga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va dahldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;*
- *o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar*

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

«Rasmlarni to'g'ri joylashtir» metodi

Kichik guruhlarda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- *o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi «yadro» tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);*
- *har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmusi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;*
- *guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.*

Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o'quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'rganish va qismlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko'nikmalar hosil qilinadi.

«Yumaloqlangan qor o'yini» metodi

Ushbu metod ham mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'zlashtirish imkonini beradi hamda o'quvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- *tasvirli kartochkalar tayyorlanadi;*
- *ularning orqa tomoniga mavzuni o'zlashtirishga oid o'n-besh variantdan iborat topshiriqlar yoziladi;*
- *sinf o'quvchilari ikki yoki uch guruhga bo'linadilar (guruhlarini hosil qilishda tasvirli kartochkalardan foydalaniladi);*
- *har bir guruh a'zolari bir nechta juftliklarga biriktiriladilar;*
- *har bir juftlik bir variantdagi topshiriqni bajaradi;*
- *jarayon yakunida umumiy xulosalar chiqariladi.*

Ushbu metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlar darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

- har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarining munosabatlari loyiha bndlari bo'yicha umumlashtiriladi;
- guruhlar umumiy sxemaning alohida bndlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim


Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:

- o'quvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi;
- o'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
- o'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

«Venn diagrammasi» strategiyasi (metodi)

Ushbu strategiya o‘quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondoshuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarini shakllantirish asosida sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:



Strategiya o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilimlar, ma’lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Strategiyani qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- *sinf o‘quvchilari to‘rt guruhga bo‘linadi;*
- *yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;*
- *har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;*
- *topshiriqlar bajarilgach, guruh a‘zolari orasidan liderlar tanlanadi;*
- *liderlar guruh a‘zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradilar.*

«Venn diagrammasi» strategiyasini qo‘llash jarayonida guruhlar tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mohiyati quyidagichadir (faoliyat mohiyati umumiy o‘rta ta’lim maktablarining VII sinfida o‘qitiladigan «Geografiya» fani bo‘yicha «O‘zbekiston tabiatining umumiy tavsifi» bo‘limi yuzasidan bilimlarni o‘rganish asosida ochib beriladi):

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1-guruh	1-diagramma	O‘zbekiston hududidagi tekisliklar
	2-diagramma	O‘zbekiston hududidagi tog‘lar
	3-diagramma	O‘zbekiston hududidagi tog‘ oraliq botiqlar

2- guruh	1-diagramma	O‘zbekiston hududidagi neft va gaz konlari
	2-diagramma	O‘zbekiston hududidagi ko‘mir konlari
	3-diagramma	O‘zbekiston hududidagi mis va oltin konlari
3- guruh	1-diagramma	O‘zbekiston hududidagi daryolar
	2-diagramma	O‘zbekiston hududidagi ko‘llar
	3-diagramma	O‘zbekiston hududidagi suv omborlari
4- guruh	1-diagramma	O‘zbekiston hududidagi cho‘llar
	2-diagramma	Cho‘l o‘simliklari
	3-diagramma	Cho‘l hayvonlari

«Insert» strategiyasi

Strategiya o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning muayyan tushunchalarga ega ekanliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. Kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi.
2. Har bir guruhdan izlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so‘raladi.
3. Guruhlar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadilar.
4. Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi.
5. So‘ngra o‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi mantni guruhlarga tarqatadi.
6. Guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o‘zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o‘xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi).
7. Guruh a‘zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiradilar.
8. Guruh a‘zolari orasidan liderlar belgilanadi.
9. Liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar.
10. Guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi .

Strategiyani qo‘llashda o‘quvchilar quyidagi sxemalar bo‘yicha faoliyatni tashkil etadilar:

1. Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanganda:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma‘nosi
V	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topgan bo‘lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topmagan bo‘lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug‘ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

2. Liderlarning hisobotidan so‘ng guruhlarning natijalarini o‘rganish chog‘ida:

Maxsus belgilar ning tartib raqamlari	Guruhlarning nomlari			
	Kopernik	Galiley	Gippokrat	Ibn Sino
1.				
2.				
3.				

Strategiya o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Demak, pedagogik texnologiyalarining shakllari turlichadir. Biroq, ularning barchasi o‘z mazmuniga ko‘ra yagona maqsad sari yo‘naltiriladi. Ya’ni, ular o‘quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, yetuk axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog‘lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo‘lgan komil shaxsni kamol toptirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

- 1.Azizxujayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: 2003 va 2006.
- 2.Bordovskiy G.A., Izvochkov V.A. Noviye texnologii obucheniya. –M.: 1989.
- 3.Klarin M.V. Innovatsii v mirovoy pedagogike. – Riga: 1995.
- 4.Shatalov V.F. Pedagogicheskaya proza. – M.: Pedagogika, 1980.
- 5.Eshmuhammedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. –T.:1996.